

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

**KAMBAG'AL OILA
A'ZOLARIGA O'RMON FONDI
YERLARIDA EKILGAN
DARAXTLAR UCHUN
SUBSIDIYA AJRATISH
USLUBIY QO'LLANMA**

Toshkent – 2025

Kambag'al oila a'zolariga o'rmon fondi yerlarida ekilgan daraxtlar uchun subsidiya ajratish bo'yicha uslubiy qo'llanma.

T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. – 13 bet.

Mazkur qo'llanma kambag'al oila a'zolariga o'rmon fondi yerlarida ekilgan va parvarishlangan har 100 ta daraxt uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida subsidiya ajratish tartibini sodda va ravon tilda tushuntirishga qaratilgan.

Ushbu qo'llanma fuqarolar, davlat xizmatchilari va boshqa shaxslar uchun mo'ljallangan.

Ushbu uslubiy qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

MUNDARIJA

Oʻrmon fondi yerlarida ekilgan daraxtlar uchun subsidiya ajratishga doir normativ-huquqiy hujjatlar	3
KIRISH	4
UMUMIY TALABLAR	5
SUBSIDIYANI AJRATISH TARTIBI	6
OʻRMON FONDI YERLARIDA EKILGAN DARAXT KOʻCHATLARINI MONITORING QILISH.....	9
ILOVALAR	12

O'rmon fondi yerlarida ekilgan daraxtlar uchun subsidiya ajratishga doir normativ-huquqiy hujjatlar

"O'rmon to'g'risida"gi Qonun	
"Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun	
2025-yil 17-yanvardagi "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-12-son Prezident qarori	
2025-yil 18-dekabrdagi "O'rmon fondi yerlaridan samarali foydalanish orqali kambag'al aholi bandligini ta'minlash va ularning daromadini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 798-son Hukumat qarori	

KIRISH

O'rmonlar davlat mulki – **umummilliy boylik** bo'lib, ulardan oqilona foydalanish lozim hamda ular davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Shuningdek, **“O'zbekiston – 2030” strategiyasining 68-maqsadi** o'rmonlar maydonini kengaytirishni, **70-maqsadi** iqlim o'zgarishi salbiy ta'sirining oldini olish kabilarni nazarda tutadi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun bir qator **ko'rsatkichlarga erishish** talab etiladi, xususan:

- yerlarni eroziyadan va melioratsiya obyektlarini qum ko'chishidan saqlash uchun 26 200 gektar ihota **daraxtzorlarini barpo etish**;

- respublikada o'rmon bilan qoplangan **maydonlarni 6,1 million gektarga yetkazish**, daraxt va buta urug'lari tayyorlashni 840 tonnaga oshirish;

- o'rmon fondining tog' va tog'oldi hududlari plantatsiyalarini barpo qilish, cho'l hududlarida o'simliklarni ko'paytirish, hududlarda **himoya o'rmonzorlarini barpo etish** va boshqalar.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ–12-son qarorida hududlarda aholi bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish va daromadlarini oshirish bo'yicha yangi yondashuvlarni keng joriy qilish, mahallalarda ehtiyojmand aholi qatlami bilan manzilli ishlashni tashkil etish orqali yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish va kambag'allikni qisqartirish choralari belgilangan.

Bu vazifalarni amalga oshirishda Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan **Kambag'al oila a'zolariga o'rmon fondi yerlarida ekilgan daraxtlar uchun subsidiya ajratish bo'yicha uslubiy qo'llanma** katta hissa qo'shadi degan umiddamiz.

UMUMIY TALABLAR

📌 2025-yil 1-iyuldan boshlab "Ekofaol fuqaro" platformasiga o'zi ekan daraxti to'g'risida ma'lumotlar kiritgan kambag'al oilalar a'zolariga o'rmon fondi yerlarida ekilgan **har 100 ta daraxt uchun** Ekologiya qo'mitasi tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining **1 baravari** (2025-yil 25-dekabr holatiga **412 ming so'm**) miqdorida subsidiya ajratish tartibi joriy etilgan.

(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son qarori)

📌 Bunda subsidiya yil davomida ikkiga bo'lib (ko'chatlar ekilgan vaqtda hamda ularni parvarishlash davridan keyin) teng ulushlarda to'lanadi.


📌 Subsidiya **"Yashil makon" umummilliy loyihasi** doirasidagi mablag'lar hisobidan qoplanadi.

*"O'rmon to'g'risida"gi Qonunga asosan o'rmonlarni ko'paytirish o'rmondan foydalanuvchilar tomonidan hududlarning serdaraxtligini oshirish, o'rmonlarning tur tarkibini yaxshilash, qimmatli daraxt navlarini ko'paytirish va eroziya jarayonlarining oldini olish maqsadida **daraxtlar va butalarning ko'chatlarini, urug'larini ekish** orqali maxsus dasturlar bo'yicha amalga oshiriladi.*

📌 "Mahalla yettiligi" tomonidan o'rmon fondi yerlaridan samarali foydalanish orqali daromad topish istagini bildirgan kambag'al oila a'zolari ro'yxati **har yili yanvar** va **avgust oylarida** shakllantirilib, tegishli davlat o'rmon xo'jaligi tashkilotlariga taqdim etib boriladi.

Bu vazifani ta'minlash Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi O'zbekiston mahallalari uyushmasiga yuklatilgan.

SUBSIDIYANI AJRATISH TARTIBI



Talabgor o'rmon xo'jaligi tashkiloti tayinlagan mas'ul xodim (**murabbiy**) tavsiya va ko'rsatmalariga asosan tanlangan maydonda **yerni tayyorlaydi**, daraxt ko'chatlarini bir mavsum davomida **ekadi** va **parvarishlaydi**.



Murabbiy tuman (shahar) ekologiya bo'limi bilan birgalikda talabgor tomonidan ekilgan daraxt ko'chatlarini joyiga chiqqan holda **dalolatnoma** va **fotohisobot asosida** qabul qilib oladi.

Tuman (shahar) ekologiya bo'limi tomonidan "Ekofaol fuqaro" platformasida har bir talabgor uchun shaxsiy kabinet ochiladi.

"Ekofaol fuqaro" platformasiga ekilgan daraxt ko'chatlari to'g'risidagi ma'lumotlar talabgor tomonidan mustaqil ravishda, zarur hollarda "mahalla yettiligi" ko'magida kiritib boriladi.

Kiritilgan ma'lumotlar tuman (shahar) ekologiya bo'limi tomonidan besh ish kuni ichida tasdiqlanadi yoki tasdiqlanishi rad etiladi.

Tuman (shahar) ekologiya bo'limi

Ekilgan daraxt ko'chatlari soniga mutanosib ravishda subsidiyaning 50% ini talabgorga to'lab berish uchun "Ekofaol fuqaro" platformasiga dalolatnomani yuklaydi

Ekologiya boshqarmalariga talabnoma yuboradi.



Ekologiya boshqarmalari "Ekofaol fuqaro" platformasidagi talabnomalar asosida subsidiya mablag'larini **5 ish kuni mobaynida** talabgorning bank kartasiga o'tkazib beradi.

Subsidiya ekilgan va parvarishlangan **har 100 ta** daraxt ko'chatlari uchun to'lanadi.



Daraxt ko'chatlari 100 tadan ko'p miqdorda ekilgan taqdirda, talabgorga ajratiladigan **subsiidiya miqdori** haqiqatda ekilgan daraxt ko'chatlari soniga mutanosib ravishda quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$x = a \cdot b / 100$$

***a** – ekilgan ko'chatlar soni;*

***b** – bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdori.*



Ekologiya boshqarmalari subsidiya berish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish, monitoring qilish va ajratilgan mablag'larning talabgorlarga yetkazilishi uchun mas'ul hisoblanadi.

O'rmon fondi yerlarida ekilgan daraxtlar uchun subsidiya ajratib berilgan kambag'al oila a'zosi bir vaqtning o'zida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa turdagi subsidiyalarni olishga haqli.

O'RMON FONDI YERLARIDA EKILGAN DARAXT KO'CHATLARINI MONITORING QILISH

Kambag'al oila a'zolari o'rmon fondi yerlarida ekan **daraxt ko'chatlarining monitoringi** ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

Ishchi guruh tarkibi:

- 📍 tuman (shahar) ekologiya bo'limi;
- 📍 kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi;
- 📍 tegishli o'rmon xo'jaligi (murabbiy) xodimlari.

Zarur bo'lganda ishchi guruh tarkibiga O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti, "Yashilloyiha" loyihalash instituti yoki boshqa ilmiy tashkilotlarning xodimlari va ekofaollar jalb etilishi mumkin.



O'rmon fondi yerlarida ekilgan daraxt ko'chatlarining monitoringi ishchi guruh a'zolarining o'zaro kelishuvi asosida har mavsum davomida va ekilgan daraxt ko'chatlarini parvarishlash davrida amalga oshiriladi.

Monitoring o'tkazish davomida ishchi guruh tomonidan quyidagilar joyiga chiqqan holda o'rganiladi:

talabgor tomonidan tuproq-iqlim sharoitga mos daraxt ko'chatlari ekilgani;

belgilangan miqdorda ko'chatlar ekilgani hamda daraxt turiga bog'liq holda ko'chatlarning ko'karib chiqqani;

bir mavsum davomida ekilgan daraxt ko'chatlarini parvarishlash va **sug'orish ishlari o'z vaqtida** bajarilayotgani;

talabgorga subsidiya mablag'lari **o'z vaqtida** to'lab berilishi.



Monitoring yakunlari bo'yicha ekilgan daraxt ko'chatlari va ularni parvarish qilish to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda **dalolatnoma** rasmiylashtiriladi.

*Bunda oilaviy pudrat shartnomasida belgilangan miqdorda ekiladigan daraxt **ko'chatlari soni** subsidiya to'lash uchun asos bo'lgan miqdordan **kam ekilganda** yoki ko'chatlar ekilgandan keyin ularning **50 foizidan kami** ko'karib chiqmaganda, talabgor tomonidan daraxt ko'chatlari qaytadan ekiladi.*

1

Talabgor ekilgan ko'chatlarni parvarishlashdan voz kechgani yoki parvarishlash bo'yicha **tavsiyalarga amal qilinmayotgani** yuzasidan o'rmon xo'jaligi tashkilotining murojaati kelib tushadi

2

Tuman (shahar) ekologiya bo'limi tomonidan **murojaat o'rganiladi**

3

Tuman (shahar) ekologiya bo'limi tomonidan ushbu ko'chatlarni parvarishlash majburiyatini o'rmon xo'jaligi tashkilotining tavsiyasiga ko'ra boshqa talabgorga o'tkazishga ruxsat berish to'g'risida **xulosa** taqdim etiladi.



Ushbu xulosa va o'rmon xo'jaligi tashkilotining tavsiyasi asosida tuman (shahar) ekologiya bo'limi tomonidan **3 kun muddatda** ko'chatlarni parvarishlash majburiyati "Ekofaol fuqaro" platformasida **yangi talabgor nomiga** rasmiylashtiriladi.

*Mazkur o'zgarishlar subsidiya to'lovlarining parvarishlash bo'yicha 2-qismini **keyinchalik yangi talabgorga to'lash uchun** asos bo'ladi.*



Tuman (shahar) ekologiya bo'limi **xulosasidan norozi bo'lgan** dastlabki talabgor ekologiya boshqarmalariga, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasiga yoki sud tartibida murojaat qilishi mumkin.



Ishchi guruh tomonidan rasmiylashtirilgan **dalolatnoma** ko'chatlar ekilgan vaqtda (bahor va kuz mavsumlarida) hamda ularni parvarishlash davridan keyin **teng ulushlarda to'lovlarni amalga oshirish uchun asos** bo'lib xizmat qiladi.



Tuman (shahar) ekologiya bo'limlari tomonidan subsidiyaning qolgan 50 foizi to'lab berilishi bo'yicha **"Ekofaol fuqaro"** **platformasi** orqali talabnoma yuboriladi.

📌 Ekologiya boshqarmalari tomonidan ushbu mablag'lar **5 ish kuni** mobaynida belgilangan tartibda to'lab beriladi.

TUSHUNCHALAR IZOHI	
O'rmon	o'rmon fondi yerlaridagi o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadigan, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega daraxtlar, butalar va boshqa tabiiy obyektlar (yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi) majmui;
O'rmonlarni muhofaza qilish	o'rmonlarga salbiy ta'sirlarning oldini olishga qaratilgan faoliyat;
O'rmonlarni qayta tiklash	kesilgan, yong'inlar, o'rmon zararkunandalari, kasalliklari hamda boshqa salbiy ta'sirlar oqibatida shikast yetkazilgan daraxt va butalar o'rnida iqlim sharoitlariga mos keladigan daraxt va butalar turlarini ekish;
O'rmondan foydalanuvchilar	o'rmondan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar;
Ko'chat ekish mavsumlari	daraxt-butalar ko'chatlarini ularning biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bahor yoki kuz mavsumlarida ekish vaqti;
Ko'chatlarni parvarishlash davri	ko'chatlar ekilgandan keyin ularning ko'karib chiqishini ta'minlash bo'yicha agrotexnik tadbirlar majmui;
Talabgor	o'rmon fondi yerlarida ko'chatlar ekish va parvarishlash istagini bildirgan kambag'al oila a'zolari;
"Ekofaol fuqaro" platformasi	aholining kundalik hayotiga ekologik tamoyillarni singdirish orqali mamlakatda "Ekofaol fuqaro" hayot tarzini keng targ'ib qilishga qaratilgan elektron tizim.

This image shows a blank sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.